

**O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA SHARQ
ALLOMALARI MEROSINING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O'RNI**

Avazbekova Gulzoda Anvarjon qizi

University of Business and Science

Pedagogika yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Email: gulzodaavazbekova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq allomalari ilmiy-merosining o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy kabi buyuk mutafakkirlarning ilmiy, falsafiy va amaliy qarashlari zamonaviy ta'lim konsepsiyalari bilan qiyoslanadi. Shuningdek, kasbiy yo'naltirishning pedagogik-psixologik asoslari tahlil qilinib, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar sintezida Sharq allomalari g'oyalari qayta talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, kasbiy yo'naltirish, Sharq allomalari, zamonaviy ta'lim, ma'naviy meros, innovatsion yondashuv.

**РОЛЬ НАСЛЕДИЯ УЧЕНЫХ ВОСТОКА В СОВРЕМЕННОМ
ОБРАЗОВАНИИ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ОРИЕНТАЦИИ
СТУДЕНТОВ**

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность научного наследия ученых Востока в процессе ориентации студентов в профессию. В частности, научные, философские и практические взгляды таких великих мыслителей, как Абу Наср Аль-Фараби, Абу Райхан Аль-Беруни, Ибн Сина, Аль-Хорезми сопоставляются с современными образовательными концепциями. Также анализируются педагогические и психологические основы профессиональной ориентации, а идеи ученых Востока переосмысливаются в синтезе традиционных и инновационных подходов.

Ключевые слова: профессия, профессиональная ориентация, ученые Востока, современное образование, духовное наследие, инновационный подход.

**THE ROLE OF THE HERITAGE OF EASTERN SCIENTISTS IN
MODERN EDUCATION IN THE PROFESSIONAL GUIDANCE OF
STUDENTS**

Annotation: *This article highlights the importance of the scientific heritage of Eastern scholars in the process of guiding students to their profession. In particular, the scientific, philosophical and practical views of such great thinkers as Abu Nasr Al-Farabi, Abu Rayhan Al-Beruni, Ibn Sina, Al-Khwarizmi are compared with modern educational concepts. Also, the pedagogical and psychological foundations of vocational guidance are analyzed, and the ideas of Eastern scholars are reinterpreted in the synthesis of traditional and innovative approaches.*

Keywords: *profession, vocational guidance, Eastern scholars, modern education, spiritual heritage, innovative approach.*

Zamonaviy jamiyatda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda kasbiy o'zini anglash va mehnat faoliyatiga tayyorgarlikni shakllantirishdir. Bu jarayon kasbiy yo'naltirish tizimi orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy-madaniy meros, xususan, Sharq allomalari asarlarida ilgari surilgan ilmiy-falsafiy qarashlar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda g'oyat dolzarb manba sifatida baholanishi mumkin.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Bunday yo'naltirish jarayonida o'quvchining nafaqat individual qiziqishlari va ijtimoiy ehtiyojlari hisobga olinadi, balki uning shaxs sifatida shakllanishi, hayotga mustaqil tayyorlanishi ham ko'zda tutiladi. Bu jarayonni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'limda kasbga yo'naltirish jarayoniga Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlari o'ta muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki Sharq allomalari – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy va boshqa ko'plab olimlar o'z asarlarida inson tabiatini, uning aqliy salohiyati, ma'naviy kamolotini va ijtimoiy faoliyat turlarini chuqur o'rgangan, kasbning jamiyatdagi ahamiyati va uning shaxs rivojidagi o'rnini ilmiy asoslab berganlar. Masalan, Abu Nasr Forobiy o'zining mashhur "Fozil shahar ahli" asarida har bir inson jamiyatdagi muayyan ijtimoiy vazifani bajarishi kerakligini, buning uchun esa u o'z tabiiy qobiliyatlariga mos kasbni egallashi lozimligini ta'kidlaydi. Bu g'oya zamonaviy kasbiy yo'naltirishning psixologik yondashuvlari bilan uyg'unlashadi, chunki har bir shaxsga mos kasb tanlash uning kelajakdagi muvaffaqiyati va hayotiy qoniqishining asosi hisoblanadi.

Ibn Sino esa insonning ichki olami, tafakkuri va bilishga bo'lgan qobiliyatlarini chuqur o'rganib, ularni ma'rifiy faoliyat bilan bog'laydi.

Uning fikricha, insonning aqliy rivojlanishi faqat ilm orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali ham yuz beradi. Bu nuqtai nazar o'quvchilarni nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalar orqali kasb-hunarga tayyorlash zarurligini asoslaydi. Abu Rayhon Beruniy esa tabiatshunoslik, geodeziya, farmatsevtika va boshqa ko'plab amaliy fanlar bilan shug'ullangan bo'lib, o'z asarlarida mehnat turlari, hunarmandchilik va ilmning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib bergan. U ilmni jamiyatga foyda keltiradigan real amaliyot bilan bog'lash zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa bugungi kunda kasb-hunar ta'limi va STEM yo'nalishlarining asosiy metodologik mezonlari bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, Al-Xorazmiy o'zining algebra va hisob fanlariga qo'shgan hissasi orqali zamonaviy texnik kasb-hunar yo'nalishlarining poydevorini qo'ygan. Bugungi raqamli texnologiyalar, dasturlash, muhandislik yo'nalishlarini o'rgatishda uning yondashuvlari qadimiy bo'lishiga qaramay, dolzarbligicha qolmoqda.

1. Kasbiy yo'naltirishning pedagogik asoslari va uning tarixiy ildizlari

Kasbiy yo'naltirish pedagogikasida shaxsning individual qiziqishlari, ijtimoiy ehtiyojlar va iqtisodiy talablar sintezida kasbiy qarorlar qabul qilish jarayoni markaziy o'rin tutadi. Bunday tizimli yondashuvning tarixiy ildizlarini esa, ayniqsa, Sharq uyg'onish davri allomalari asarlarida ko'rish mumkin.

Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil shahar ahli" asarida har bir insonning qobiliyatiga mos faoliyat turi tanlanishi kerakligini ta'kidlab, jamiyatdagi kasblarning ijtimoiy tuzilmadagi o'rnini ilmiy asoslab bergan.

Abu Rayhon Beruniy esa "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida amaliy faoliyat turlari – hunarmandchilik, dehqonchilik, san'at va ilmning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini chuqur tahlil qiladi.

2. Sharq allomalari merosi va zamonaviy kasbga yo'naltirish konsepsiyalari

Zamonaviy ta'limda kasbiy yo'naltirish konsepsiyalari (Holland modeli, Superning hayot bosqichlari nazariyasi, Ginzberg modeli va b.) psixologik, sotsiologik hamda iqtisodiy komponentlarni uyg'unlashtiradi. Sharq allomalari bu yondashuvlarning ilk nazariy asoschilaridan bo'lib, shaxsning ichki dunyosi va kasbiy faoliyat o'rtasidagi uzviylikni asoslab berishgan. Ibn Sino "Kitob ush-shifo" asarida nafaqat ilm-fanning tarmoqlarini tasniflaydi, balki har bir soha egasining axloqiy, ruhiy va aqliy fazilatlarini ham ko'rsatib beradi. Bu esa kasb tanlashda shaxsiy fazilatlar muhim omil ekanini belgilaydi. Al-Xorazmiyning "Hisob al-Hind" asari orqali matematika va amaliy hisob-kitob fanlari rivoji kasbiy texnik

yo'nalishlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Bu esa zamonaviy texnik kasb-hunar ta'limi uchun tarixiy asosdir.

3. Ta'lim jarayonida merosni integratsiyalash: metodik yondashuvlar

Sharq allomalari merosini ta'lim jarayoniga integratsiyalash quyidagi metodik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

1-Kasbiy portfoliolarda allomalar hayoti va faoliyatini namuna sifatida qo'llash;

2-STEAM ta'limida (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino ilmiy yondashuvlaridan foydalanish;

3-Ekspeditsion loyihalar orqali Sharq uyg'onish merosini o'rganish va uni zamonaviy kasblar bilan bog'lash;

4-Axborot texnologiyalaridan foydalanib, interaktiv modullar yordamida o'quvchilarga kasbiy merosiy motivatsiya berish.

Sharq allomalari ilmiy merosini zamonaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalash nafaqat tarixiy xotirani saqlash, balki o'quvchilarning kasbga bo'lgan ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunday integratsiya turli metodik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin: interaktiv darslar, kasbiy portfoliolar, tarixiy shaxslar asosidagi loyihalar, STEAM-integratsiyalangan mashg'ulotlar orqali o'quvchilar nafaqat kasbga oid bilimlarni, balki tarixiy-ma'naviy ongni ham egallaydilar. Bu esa ularda mehnatga mas'uliyatli yondashuv, milliy g'urur va o'z salohiyatiga ishonchni shakllantiradi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sharq allomalari merosi zamonaviy kasb-hunar ta'limi uchun bebaho manbadir. Ularning ilmiy-falsafiy qarashlarini zamonaviy kasbiy yo'naltirish konsepsiyalari bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilarni ongli va mas'uliyatli kasb tanlashga yo'naltirish mumkin. Zamonaviy kasb-hunar ta'limi tizimi tobora murakkablashayotgan mehnat bozori talablariga moslashgan holda, o'quvchilarni erta bosqichdan kasbiy yo'naltirishga majbur. Bunda pedagoglar va psixologlarning roli beqiyos. Ammo ular nafaqat zamonaviy konsepsiyalarga, balki milliy-ma'naviy an'analarga ham suyanmog'i kerak. Shu nuqtai nazardan, Sharq allomalari asarlari – bu faqat ilmiy yodgorlik emas, balki ta'limda yondashuv, kasbga yo'naltirishda esa muhim metodologik manba hisoblanadi. Ularning ijodini zamonaviy innovatsion usullar bilan uyg'unlashtirish – bu yosh avlodni ongli ravishda o'z kasbini tanlaydigan, o'z qobiliyatiga mos faoliyat yo'lini egallaydigan barkamol inson qilib tarbiyalashning asosiy kalitidir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Forobiy A.N. "Fozil shahar ahli". Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino. "Kitob ush-shifo". – Qohira nashri, 1985.
3. Beruniy A.R. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar". Toshkent: Fan, 1990.
4. Holland J.L. "Making Vocational Choices". Englewood Cliffs, 1997.
5. Super D.E. "The Psychology of Careers". New York: Harper & Row, 1957.